



## LIVIYADAGI ICHKI NIZOLAR VA MOJAROLAR

**Karimov Farxod Erkinovich**

O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi  
"Xalqaro munosabatlar" kafedrasini mudiri,  
siyosiy fanlar doktori, dotsent  
e-mail: [fkarimov@jiau.uz](mailto:fkarimov@jiau.uz)  
Tel: +99890 975 19 19

### MAQOLA HAQIDA

**Qabul qilindi:** 24-sentabr 2024-yil

**Tasdiqlandi:** 26-sentabr 2024-yil

**Jurnal soni:** 12

**Maqola raqami:** 29

**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.1007>

**KALIT SO'ZLAR / КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА /**

### KEYWORDS

Kirenaika, Tripolitaniya, Senussiyalar harakati,  
Al-Abaidat, Avaqir, Zuvayyani, Avlad  
Sulaymon, Magariha va Tebu qabilalari,  
Umum Milliy Kongress (GNC), Al-Sarach  
hukumati, general Xaftar hukumati.

### ANNOTATSIYA / АННОТАЦИЯ / ANNOTATION

Mazkur maqolada Liviyaning o'ziga xosligi, Liviyaning siyosiy rivojlanish tarixi, 2011-yil "Arab bahori" bilan boshlangan ichki nizolarning Liviya davlatini har tomonlama (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy) cho'kish va beqarorlikni vujudga keltirish, xavfsizlik tizimini izdan chiqargani hamda tashqi (xorijiy davlatlar) kuchlarning to'qnashuv va tortishuv hududiga aylantirgani o'rganilgan. Shuningdek, maqolada Liviya qanday qilib bu holatga tushgani, ichki nizolar va mojarolarning paydo bo'lishi va holati tahlil qilingan.

**Kirish.** Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqalari bugungi kunda dunyoning eng qaynoq nuqtalardan biri bo'lgan mintaqa sifatida e'tirof etilib, mazkur hududdagi murakkab vaziyatning kelib chiqish sabablari va omillari, uning oqibatlarini turli xil talqin va tahlil qilinadi. Bu birinchi navbatda, mintaqadagi siyosiy jarayonlarning o'ziga xosligi, ikkinchidan esa tarixiy shakllangan etnosiyosiy va davlatlararo munosabatlarning bu jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi.

Shu jihatdan, mazkur mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'rganish muhim hisoblanadi. Mazkur davlatlar ichida ichki siyosiy muammolar sababli qayta tiklana olmagan Liviya davlatidagi sodir bo'layotgan jarayonlar tahlili alohida mavzu sifatida o'rganildi. Liviya, geografik jihatdan Afrikaning shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, tarixiy, madaniy va siyosiy jihatdan juda boy bir mamlakatdir. O'zining strategik joylashuvi va boy tabiiy resurslari tufayli, Liviya tarix davomida turli imperiyalar va davlatlar tomonidan nazorat qilinib kelindi. Biroq, so'nggi yillarda Liviya ichki nizolar va mojarolar markaziga aylangan. 2011-yilda o'ziga xos arab bahori davomida sodir bo'lgan inqilob, mamlakatda o'zgarishlar olib keldi, lekin bu jarayon ichki mojarolarni yanada chuqurlashtirdi. Ushbu maqolada, Liviyadagi ichki nizolar va ularning sabablari, natijalari hamda xalqaro hamjamiyatning o'zgarishlarga ta'siri tahlil qilinadi. Buning natijasida, o'zaro ziddiyatlar va kuchli harakatlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar yoritiladi, shuningdek, Liviyaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ham ko'rib chiqiladi.

### Adabiyotlar tahlili:

Mavzuga oid masalalarning tarixiy shakllanishi bosqichlariga bag'ishlangan tadqiqotlar turli davrlar tahlilini, jumladan, Rim imperiyasi, Usmoniylar va Italiya mustamlakachiligi davrini qamrab oladi. Mazkur tadqiqot ishlarini o'rganish, zamonaviy Liviyadagi ziddiyatlarning tarixiy ildizlarini tushunishga yordam beradi (Masalan: Zohry, 2015; Fawzy, 2018). Liviyadagi muammolarning siyosiy jihatlariga oid "Arab bahori" dan keyin yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik va mojarolarni tahlil qiluvchi ko'plab tadqiqotlar mavjud. Ular orasida M.Qaddofiyning hukmronligi va inqilobdan keyingi o'zgarishlarni o'rganish, mamlakatda tashkilotlar va siyosiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlarini mavjud (Harchaoui, 2020; Smith, 2019). Liviya jamiyatidagi millatchilik va qabilaviy ziddiyatlar, shuningdek, gender va iqtisodiy tengsizlik kabi muammolar ichki mojarolarni kuchaytiruvchi omil sifatida tadqiq etilgan (Watanabe, 2021; Khalifa, 2022).

Ushbu adabiyotlarni tahlil qilish orqali, Liviya ichki nizolari va mojarolarining murakkab tabiati, ularning tarixiy konteksti va xalqaro ta'siri haqida chuqurroq ma'lumotlar ega bo'lish mumkin. Kelajakda, bu masalalarni hal etish uchun qaysi strategiyalar va yondashuvlar samarali bo'lishi mumkinligini aniqlashda davom etish zarur, deb hisoblaymiz.

### Metodologiya:

Ushbu maqolada "Liviyada ichki nizolari va mojarolari" mavzusi o'rganish uchun bir necha tadqiqot metodologiyalaridan foydalanildi. Xususan, *adabiyotlarni tahlil qilish*: Liviya ichki nizolari va mojarolari haqidagi mavjud ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa manbalar o'rganildi. Bu jarayonda tarixiy, siyosiy va ijtimoiy kontekstlarni ko'rib chiqish maqsadida akademik tadqiqotlar, tahliliy maqolalar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari tahlil qilindi. Bundan tashqari intervyu va so'rovnomalar tahlil usullari qo'llanildi. Liviyalik mutaxassislar, siyosatshunolar va mahalliy mutaxassislar bilan olib borilgan intervyular orqali ularning tajribalari va fikrlari yig'ilgan. Ushbu ma'lumotlar ichki nizolar va mojarolarni tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, yig'ilgan ma'lumotlar sifatida, tematik tahlil usuli qo'llanildi. Bu usul, olingan intervyu va matnli materiallardan asosiy mavzularni va ziddiyatlarni ajratib ko'rsatishga imkon bergan. Natijalar orqali, ichki nizolar va mojarolarni o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar yoritildi. Qo'shimcha ravishda, Liviya mojarolariga ta'sir etuvchi ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Statistik ma'lumotlar, demografik o'zgarishlar va iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida olingan tahlil, ichki nizolarni yanada yaxshi tushunishga yordam bergan.

### Asosiy qism / Muhokama

*Liviyaning o'ziga xosligi.* Liviya uchta asosiy mintaqaga bo'linadi: shimoli-g'arbda Tripolitaniya, sharqda Kirenaika va janubda Fezzan (1-rasmga qarang). Mojaro va bo'linishlar asosan Kirenaika va Tripolitaniya o'rtasida bo'lgan. Mazkur uch mintaqada ikkita asosiy farq bilan bo'linadi:<sup>1</sup> birinchisi geografik va har uch mintaqaning ma'muriy markazlari orasidagi masofaning uzoqligi va ekologiya, ya'ni farqli iqlim sharoitiga egaligi, birlashtiruvchi cho'l, daryolar va infratuzilmaning yo'qligi (2-rasmga qarang) yagona markaziy davlatni yaratishga doim to'sqinlik qilgan. Ikkinchisi qabilaviy bo'linish bo'lib, ular har bir mintaqaning chegaradosh davlatlari bilan bog'liq. Misol uchun, Kirenaika va Misrning g'arbiy qismidagi ba'zi qabilalar o'rtasida kuchli aloqalar mavjud bo'lsa, Tripolitaniyadagi qabilalar Tunis bilan, Fezzandagilar esa "Chad ko'li" deb nomlanuvchi mintaqada aholisi bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarga ega. Bundan tashqari, har bir mintaqada o'ziga xos qabila tarkibiga ega. Tripolitaniya uchta asosiy qabiladan - Varfalla, Qadhadfiya va Zinten qabilalaridan, Kirenaika esa Al-Abaidat, Avaqir va Zuvayyani qabilalaridan, Fezzan esa Avlad Sulaymon, Magariha va Tebu qabilalaridan iborat. Ularning qabilaviy tarkibi bu hududlar o'rtasidagi munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va hududiy bo'linishlarning mustahkamlanishiga olib keldi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Cherif Bassiouni, Libya: From Repression to Revolution: A Record of Armed Conflict and International Law Violations, 2011-2013. Martinus Nijhoff Publishers, 2013.

<sup>2</sup> Mohamed Ben Lamma, "The Tribal Structure in Libya: Factor for Fragmentation or Cohesion," Fondation Pour La Recherche Stratégique, 2017.

1-rasm. Liviyaning uch mintaqaga bo'linishi



2-rasm. Liviyaning ekologik bo'linishi



### Liviyaning siyosiy tarixi

Usmonlilar imperiyasi 1517-yilda Kirenaikani, 1551-yilda Tripolitaniyani egallaydi va orada bir muddat qabilalarning yarim mustaqil hukmronligidan keyin 1835-yilda yana Kirenaika va Tripolitaniyani qayta egallash bilan birga Fezzanni ham egallaydi.<sup>3</sup> Usmonlilar davrida ham har uch viloyat alohida hududlar bo'lib kelgan. 1911-yilda italiyaliklar Tripolitaniya jangida Usmonlilarni yengib Liviyaga kirib kelganda, ularga nisbatan munosabat mintaqalarda har xil bo'ldi. Tripolitaniya kuchli qarshilik ko'rsatmadi va hatto uning bir qancha qabilalari italiyaliklar bilan hamkorlik qildi. Fezzan va Kirenaika italyan mustamlakachilari bilan hamkorlik qilishga unchalik moyil emas edi.<sup>4</sup> 1917-yilda Kirenaika rahbari Idris boshchiligidagi senussiylar harakati Tripolitaniyani bosib olishga urindi, biroq chekinishga majbur bo'ldi. Bu voqea ushbu mintaqalar o'rtasidagi munosabatlarning notinchligini ko'rsatdi.<sup>5</sup> Tripolitaniyaliklar 1918-yilda birinchi arab respublikasini tuzishga harakat qilishdi, lekin ichki bo'linishlar tufayli rejalarini barbod bo'ldi. 1920-yilda Idris Kirenaika amiri deb e'lon qilindi, ammo Liviya faqat 1939-yilga kelib bir hukmdor ostidagi uch mintaqaning ittifoqi sifatida paydo bo'ldi.<sup>6</sup> Ammo ko'p o'tmay ingliz va fransuzlar bosib oldi.

Iqtisodiy darajada, Italiya bosib olgan Tripolitaniya Kirenaikaga qaraganda ancha yaxshi infratuzilmaga, xususan, yo'llar va temir yo'l tarmog'iga ega bo'ldi. Poytaxt Tripolida joylashganligini hisobga olib, Tripolitaniya xalqaro savdo va bank ishi ham ancha rivojlandi. Shunga o'xshash vaziyat qishloq xo'jaligida ham mavjud edi. Ikkinchi Jahon urushi Tripolitaniya yoki Fezzanga qaraganda Kirenaikaga qattiqroq ta'sir qildi. Kirenaika Britaniya armiyasi uchun operatsiyalar maydoniga aylandi, Bengazi shahri infratuzilmasini vayron qilgan 1000 ta havo hujumini boshidan kechirdi.<sup>7</sup>

Ikkinchi jahon urushidan keyin Tripolitaniya va Kirenaika Britaniya hukmronligi ostiga tushdi, Fezzan esa Fransiya hukmronligi ostida edi. Natijada ularning ta'lim tizimi bir-biridan farq qildi: Tripolitaniya Misr va Falastin modeliga, Kirenaika misrliklari va Fezzan esa Tunis va Jazoiring modeliga ergashdi.<sup>8</sup> Italiya istilosi demografik oqibatlariga ham olib keldi: Kirenaika aholisi ikki baravar kamaydi, Tripolitaniyada esa 40 000 kishidan iborat kuchli italyan jamoasi paydo bo'ldi, ularning aksariyati mustamlaka fermalarida yashardi.<sup>9</sup>

Italiya istilosi tugagach, Tripolitaniya Kirenaika va Fezzanga qaraganda siyosiy jihatdan ancha rivojlangan edi. 1944-1947-yillarda Tripolitaniyada ko'plab siyosiy guruhlar mavjud edi: Millatchilar partiyasi, Birlashgan milliy front, Erkin milliy blok, Misr-Tripolitaniya ittifoqi partiyasi, Ishchilar partiyasi va Liberal partiya. Bundan tashqari, bir qancha siyosiy guruhlar va italiyalik ko'chmanchilar tomonidan tuzilgan tashkilotlar mavjud edi. Tripolitaniyadagi siyosiy guruhlar xilma-xilligi uni yagona rahbarlik bo'yicha konsensusga erishishga to'sqinlik qildi. Siyosiy jihatdan kam rivojlangan Kirenaika esa Idris al-Senussining rahbarligi haqida kelishib oldi.<sup>10</sup>

1948-yilda yagona Liviya g'oyasi juda muhim nuqtaga yetdi. Kirenaika Idris al-Senussi boshchiligidagi davlat bo'lishini xohlardi, Tripolitaniya esa bunga qarshi chiqdi va Fezzan boshqa ikki mintaqaga qo'shilish yoki Fransiya hukmronligi ostida qolish haqida o'yladi.<sup>11</sup> Rejim turi bo'yicha ham farqlar mavjud edi. Kirenaika monarxiyani, Tripolitaniya esa respublikani yoqladi.<sup>12</sup> 1949-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Liviya 1952-yil 1-yanvargacha mustaqil bo'lishi kerakligi haqida rezolyutsiya chiqardi. Britaniya va Fransiya harbiylari mamlakatni tark etdi. Bu BMT yordami va vositasi bilan qurilgan birinchi mustaqil davlat ham bo'ldi. 1951-yilda Liviya mustaqilligini e'lon qildi va Misrda surgunda yurgan Idris Liviyaga qaytib keldi va qirol bo'ldi. Shuningdek, Tripolitaniyaning yangi davlatdagi hukmron mavqei va u yerda aholining uchdan ikki qismi istiqomat qilganligi sababli Kirenaika va Fezzan federativ tizimni talab qildi. Qolaversa, Kirenaika Bengazini poytaxt qilish uchun bosim o'tkazdi. Shunga qaramay, Liviya, poytaxt Tripoli bo'lgan uch mintaqaning birlashgan hukumati sifatida federal tizim tashkil topdi.<sup>13</sup>

Qirolik davrida Idris Kirenaikalik bo'lganligi uchun Kirenaikaliklar ma'muriy boshqaruvning episentri bo'ldi, ko'pchilik kireneykaliklar vazirlar kengashida lavozimlarni egallab, byurokratiya, jumladan, diplomatik xizmatda yuqori lavozimlarga tayinlandi. Bundan tashqari, kirenaikaliklar politsiya va xavfsizlik sohasida yuqori lavozimlarni egallagan: 1962-yilda xavfsizlik kuchlarining bosh qo'mondoni Kirenaikalik general-mayor Mahmud Bu Gvitin edi. Eng asosiysi, Ikkinchi Jahon urushigacha Kirenaika armiyasi bo'lgan Senussi armiyasining faxriylari, yangi Liviya armiyasi asosiy qismini tashkil etdi. Kirenaikaning Liviya ustidan hukmronligi, ayniqsa, Kirenaikada neft topilganidan keyin iqtisodiy jihatdan ham kuchaydi.<sup>14</sup>

Iqtisodiy nuqtai nazardan, 1960-yillarda Liviyaga katta daromad keltira boshlagan qirolik boshqaruvining ikki xil bosqichini ajratib ko'rsatish muhimdir. Qirol hukmronligining birinchi o'n yilligi qashshoqlik bilan tavsiflangan. Liviya o'z mustaqilligini e'lon qilganida, u infratuzilmasi vayron bo'lgan va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari juda past bo'lgan dunyodagi eng qashshoq mamlakatlardan biri edi: ishsizlik juda yuqori, jon boshiga daromad yiliga atigi 25 dollarga teng bo'lgan, aholining 92 foizini tashkil etgan juda yuqori savodsizlik va chaqaloqlar o'limi 40 foizgacha (ya'ni salkam tug'ilgan har ikki boladan biri nobud) bo'lgan. Qirolik hukmronligining birinchi yillarida Liviyada Tripolitaniya va Kirenaikadagi bir nechta to'qimachilik va poyabzal fabrikalarini hisobga olmaganda og'ir sanoat deyarli yo'q edi.<sup>15</sup>

Qirolik hukmronligining ikkinchi o'n yilligida 1960-yillarda neft kashfiyoti bilan iqtisodiyotda keskin o'sish yuz bergan. Liviya neftining eksporti 1961-yilda yiliga 3 million dollar daromad beradigan 6 million barrelidan, 1969-yilda 1,175 million dollar daromad keltiradigan 1120 million barrelga ko'tarildi.<sup>16</sup> Neft kashfiyoti va uning daromadlari Liviya iqtisodiyotini sezilarli darajada o'zgartirdi. Liviya quloq iqtisodiyotdan gullab-yashnayotgan iqtisodiyotga aylandi: dastlabki yillarda 25 dollarni tashkil qilgan aholi jon boshiga daromad 1967-yilda 1000 dollarigacha

<sup>3</sup> Dirk Vandewalle, *A History of Modern Libya*. Cambridge: Cambridge University Press, 2012.

<sup>4</sup> Dirk Vandewalle, 2012, o'sha manba.

<sup>5</sup> Cherif Bassiouni, 2013, o'sha manba.

<sup>6</sup> Nadine Schnelzer, *Libya in the Arab Spring: The Constitutional Discourse Since the Fall of Gaddafi*. Erlangen: Springer, 2016.

<sup>7</sup> Ronald Bruce St. John, *Libya: From Colony to Revolution*. Oxford: One world, 2012.

<sup>8</sup> Ronald Bruce St. John, 2012, o'sha manba.

<sup>9</sup> Mansour Omar El-Kikhia, *Libya's Qaddafi: The Politics of Contradiction*. Gainesville: University Press of Florida, 1997.

<sup>10</sup> Mansour Omar El-Kikhia, 1997, o'sha manba.

<sup>11</sup> Cherif Bassiouni, 2013, o'sha manba.

<sup>12</sup> Ronald Bruce St. John, 2012, o'sha manba.

<sup>13</sup> Dirk Vandewalle, 2012, o'sha manba.

<sup>14</sup> Ronald Bruce St. John, 2012, o'sha manba.

<sup>15</sup> Dirk Vandewalle, 2012, o'sha manba.

<sup>16</sup> John Wright, *A History of Libya*. London: Hurst Publishers, 2010.

ko'tarilib, mustaqillikning dastlabki yillarida bo'lgani kabi endi tashqi yordamga muhtoj davlat emas edi.<sup>17</sup> Mustaqillik yillarida maktabda o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan bolalar 10 foizdan 1968-yilda qariyb 85 foizga yetdi. Liviya infratuzilmasi ham yaxshilandi. 1967 va 1968-yillarda ko'plab maktablar, kasalxonalar va 50 000 dan ortiq aholiga ega bo'lgan yangi shaharlarga qo'shimcha ravishda 2000 kilometrlik yo'llar qurildi.<sup>18</sup>

Shu bilan birga, 1969-yilda neftdan tashqari iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanmagan edi. 2 million aholidan faqat bir necha yuz nafari neft sanoatida ishlagan, YaIMda qishloq xo'jaligining ulushi 2,4 foizni, ishlab chiqarishning ulushi esa atigi 2 foizni tashkil qilgan.<sup>19</sup> 1963-yilda qirol federal tizimni bekor qildi va Liviya unitar davlat deb e'lon qildi. Uning qarori birinchi navbatda neftning topilishi bilan bog'liq edi. Neft kashfiyoti Kirenaikada bo'lgani uchun federal tizim tufayli asosan ushbu mintaqaga ko'proq foyda ko'rardi. Shu bois, qirol (o'zi kirenaikalik bo'lsada) federal tizimni tugatish to'g'risida qaror qilar ekan neft barcha liviyaliklar uchun mintaqasidan qat'iy nazar teng bo'ylik ekanligini ta'kidlaydi. Biroq, markazlashgan byurokratiya qurish zarurati mintaqaviy va mahalliy holat, davlat subyektlari, masalan, harbiylar va mahalliy amaldorlarning afzalliklariga mos kelmasdi.<sup>20</sup> Natijada, bir guruh harbiylar Muammar al-Qaddafiy boshchiligidagi birlashib qirolni ag'dardi. Boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra, Qaddafiy boshchiligidagi bir guruh harbiylarni qirolni ag'darishdagi asosiy motivi monarxiya tizimini tugatib sotsiyolist respublika tuzish bo'lgan. Qaddafiy yosh harbiylik chog'idan Misr yetakchisi Jamol Nosirning arab millatchiligiga asoslangan sotsialist bir davlat haqidagi go'yalaridan juda ta'sirlangan va ilhomlangan. Qirol Idris esa g'arb tarafdori edi, shu bois uni ag'darish fikri bir nechta ofitserlar va harbiylarda mavjud edi.<sup>21</sup>

Qirol Idris 1969-yilda Qaddafiy boshchiligidagi harbiy to'ntarish natijasida ag'darilishi bilan davlat tuzilmasini ham tubdan o'zgartirdi. Islom va sotsiyalizmning birlashgani (adabiyotlarda islom sotsiyalizmi deb nomlanadi) *Jamahariya* tashkil topganini va monarxiya tugatilganligini e'lon qildi.<sup>22</sup> Ijroiya va qonun chiqaruvchi institutlardagi elitalar o'zgardi; 1969-yildan 1975-yilgacha Inqilobiy qo'mondonlik kengashining (oliy hokimiyat) besh a'zosi g'arbdan, to'rtta sharqdan va ikkitasi janubdan edi. Xuddi shunday, 1969-yildan 2006-yilgacha vazirlar kengashi a'zolarining 44 foizini tashkil etgan ijroiya organlari tarkibida g'arbliliklar ustunlik qilgan.<sup>23</sup>

Qolaversa, Qaddafiy (asl kelib chiqishi mamlakat g'arbida joylashgan Sirt shahridan edi) qarindoshlari, oilasi va o'zining Qadhadfiya qabilasini, shuningdek, uni qo'llab-quvvatlagan qabilalar a'zolarini, xususan, Varfalla ("g'arbdan") qabilasini harbiy va xavfsizlik idoralari yuqori lavozimlarga ega bo'lishni ta'minladi.<sup>24</sup> Kirenaikadan kelgan qirolik paytda boshqaruvning asosini tashkil etgan Senussi zobitlarini armiya va xavfsizlik tizimidan chetlatishni boshladi. Bundan tashqari, Qaddafiy o'zining kitobi "Yashil kitob"da belgilangan siyosiy-iqtisodiy mafkurasini majburan joriy qilar ekan, Senussiy harakatini diniy tashkilot sifatida uning mafkurasiga ya'ni davlat mafkurasiga to'g'ri kelmasligini ma'lum qilgan holda noqonuniy deb topdi.<sup>25</sup>

Qaddafiy 1969-yilda davlat to'ntarishi natijasida hokimiyatni qo'lga kiritganida qirolik davridagi qabilachilik, qarindosh-urug'chilik va ijtimoiy adolatsizlikni yo'q qilishga va'da bergan edi. Biroq, Qaddafiy inqilobi "mafkuraviy majburiyatni o'rnatish" shiorini qabul qildi va bir paytlar o'zi tanqid qilgan qabilachilik va qarindoshchilikni rivojlantirdi.<sup>26</sup> Bir so'z bilan aytganda Qaddafiy "davlatni o'zi" bo'lib qoldi.

Iqtisodiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, Liviya Qaddafiyning birinchi o'n yilligida yaxshi o'zgarishlar yuz berdi. Aholi jon boshiga daromad 1980-yilda 10 000 AQSh dollarigacha ko'tarildi, kunlik neft daromadi esa 3 million dollarni tashkil etdi. Biroq, daromadning faqat neftga bog'lanib qolganligi Liviya daromadlarini 1981-yildagi 21 milliard dollardan 1986-yilda 5,4 milliard dollargacha kamayishiga ham sabab bo'ldi.<sup>27</sup> Bundan tashqari, neft daromadi xalqqa teng taqsimlanmadi, aksincha ma'lum bir elita va qabila qo'lida qoldi. Neftga asoslangan iqtisodiyot tufayli ishlab chiqarish sanoati rivojlanmadi.<sup>28</sup>

Boz ustiga, Qaddafiy Tripolitaniyani mamlakatning biznes va iqtisodiy markaziga aylantirish maqsadida hukumat idoralari Bengazidan Tripoliga ko'chirdi va ba'zi muhim iqtisodiy tuzilmalar, masalan Olimpiya qo'mitasi va milliy aviakompaniyani ko'chirdi, natijada Kirenaika iqtisodiy tanazzulga yuz tutdi.<sup>29</sup> Bu va yuqorida aytib o'tganimiz qabilachilik Bengazida muxolif kuchlarning kuchayishiga olib keldi. 1976-yilda Bengazi universitetida talabalar norozilik harakati sodir bo'ldi va u qattiq bir shaklda bostirildi.<sup>30</sup>

1980-yillarda rejimga asosiy muxolifat Liviya Najot fronti tashkil topgan bo'lsa, 1990-yillarda islomchilar asosiy muxolifat harakati vakili bo'lib, uning a'zolari sharqdagi Ajdabiya, Bengazi, Bayda, Derna va Tobruk kabi shaharlardan edi. 2000-yilda va 2005-yilda Bengazida Qaddafiyga qarshi norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi.<sup>31</sup> Har safar hukumat kuchlari tomonidan bostirildi.

2011-yilda Tunisida boshlangan "arab bahori" to'loqida Qaddafiy hukumatiga qarshi Kirenaika norozilik va muxolifatning markazi bo'lib chiqdi. Tripolitaniya esa Qaddafiy rejimining tarafdoriga aylandi. Norozilik boshlangan joyi va markazi Bengazi edi. 2011-yil fevral oyida Liviya qo'zg'oloni boshlanganda, u sharqiy Bengazi, Derna, Tobruk va Bayda shaharlaridan boshlanib katta hududiy o'lchamga ega edi. G'arbiy Liviya aksincha muhim namoyishlarga guvoh bo'lmadi, Bani Valid (Varfalla) kabi bir nechta qabilalar Qaddafiyga sodiq qoldi va inqilobchilarga qarshi kurashgan.<sup>32</sup>

2011-yil mart oyiga kelib, inqilobiy kuchlar Kirenaikani to'liq egallab olishdi va Milliy o'tish kengashini tuzdilar va g'arbga ya'ni Tripolitaniyaga o'tishni boshladilar. Tez orada Liviya qo'zg'oloni qurolli to'qnashuvga aylandi. BMT dastlab Qaddafiyga muammoni harbiy yo'l bilan emas, muzokara yo'li bilan hal qilishga chaqirdi. Natija bo'lmagach BMT Xavfsizlik Kengashining 1973-sonli rezolyutsiyasi asosida NATO (AQSh, Britaniya, Fransiya harbiylaridan iborat kuchlar) mojaroga aralashdi va Liviya hukumat qo'shinlarini tor-mor qildi.<sup>33</sup> Qaddafiy 2011-yil oktabr oyida o'zi tug'ilib o'sgan Sirtida inqilobchilar tomonidan qo'lga olinib o'ldirildi. Shunday qilib, Qaddafiyning 42 yillik hukmronligi tugadi.

#### ***Qaddafiydan keyingi Liviyada ichki nizolarning kuchayishi va tashqi omil.***

Qaddafiy o'limi Liviyaga huzur keltirmadi. Aksincha, vaziyat tamomiyla yomonlashdi. Xavfsizlik va barqarorlik butunlay izdan chiqdi. Qaddafiy o'limidan keyin Liviyada o'tish hukumati tuzildi. Liviyaning o'tish davri hukumati 2012-yil iyulida yangi saylangan Umum Milliy Kongressga (inglizcha qisqartmasi, GNC) vakolat berdi, biroq GNC ko'plab muammolarga duch keldi. Jumladan, 2012-yil sentabrida islomiy jangarilar tomonidan AQShning Bengazidagi konsulligiga hujumi hamda ISHid va boshqa qurolli guruhlarining butun mamlakat bo'ylab tarqalishi yuz berdi.<sup>34</sup>

Umum Milliy Kongress vaqtinchalik hukumat tuzsada hukumatlar faoliyati uzoqqa bormay tortishuv va kelishmovchiliklar tufayli to'xtab qolar va samara bermas edi. Buning sababi, iyulda bo'lib o'tgan parlamentga saylovlarda "demokratik tamoyillar asosida o'tkazish" maqsadida siyosiy partiyalar tuzishga erkinlik berishi (partiya tuzish uchun bir saylov okrugidan ro'yxatdan o'tsa bo'ldi edi) yuzlab partiyalarning qurulishiga sabab bo'ldi va bu ayni paytda qabilaviy, hududiy, mintaqaviy, diniy xususiyatlarga ega partiyalarning paydo bo'lishini ham anglatardi. Bu esa parlamentda haddan tashqari qutblashgan tizimni yaratar ekan, konsensus va konsolidatsiya masalasi juda qiyin ahvolga tushub qoldi. Natijada, ilk saylangan bosh vazir Mustafa Abushagur faoliyati 3 oyda tugatildi. Uni o'rniga saylangan Ali Zeydanning bosh vazirligi 2014-yil 11-martgacha (1,5 yil) davom etgan bo'lsada, majlisdagi kelishmovchiliklar tufayli samarali faoliyat yurita olmadi. U o'z faoliyatining samarasizligida "Musulmon Birodarlar"ga yaqinligi bilan bilingan Adolat va Qurilish partiyasini aybladi. Adolat va Qurilish partiyasi

<sup>17</sup> Ronald Bruce St. John, 2012, o'sha manba.

<sup>18</sup> Mansour Omar El-Kikhia, 1997, o'sha manba.

<sup>19</sup> Dirk Vandewalle, 2012, o'sha manba.

<sup>20</sup> Alia Brahimi, "Libya's Revolution," *The Journal of North African Studies* 16, no. 4, 2011, pp. 605-624.

<sup>21</sup> Dirk Vandewalle, 2012, o'sha manba.

<sup>22</sup> Alia Brahimi, 2011, o'sha manba.

<sup>23</sup> Dirk Vandewalle, 2012, o'sha manba, 105-126 betlar.

<sup>24</sup> Dirk Vandewalle, 2012, o'sha manba.

<sup>25</sup> Anthony Bell and David Witter, *Roots of Rebellion*. Washington: Institute for the Study of War, 2011.

<sup>26</sup> Ronald Bruce St. John, 2012, o'sha manba.

<sup>27</sup> John Wright, 2010, o'sha manba.

<sup>28</sup> Dirk Vandewalle, 2012, o'sha manba.

<sup>29</sup> Thomas Hüsen, "Tribes, Revolution, and Political Culture in the Cyrenaica Region of Libya," in *Local Politics and Contemporary Transformations in the Arab World*, ed. Malika Bouziane et al. Hampshire: Palgrave Macmillan, 2013.

<sup>30</sup> Ali Abdullatif Ahmida, "Libya, Social Origins of Dictatorship, and the Challenge for Democracy," *The Journal of the Middle East and Africa* 3, no. 1, 2012, pp. 70-81.

<sup>31</sup> Ali Abdullatif Ahmida, 2012, o'sha manba.

<sup>32</sup> Peter Cole, "Bani Walid: Loyalty in a Time of Revolution," in Peter Cole, and Brian McQuinn (eds), *The Libyan Revolution and its Aftermath*. 2015, pp. 285-302.

<sup>33</sup> Cherif Bassiouni, 2013, o'sha manba.

<sup>34</sup> Instability in Libya, <https://www.cfr.org/global-conflict-tracker/conflict/civil-war-libya>, Updated August 03, 2022.

esa Ali Zeydani korrupsiyonerlik, qabilachilik va netopizmida aybladi.<sup>35</sup> Funksiyonal bir hukumatning yo'qligi xalqning qiynab turgan muammolari ustida emas hokimiyat uchun kurashi fuqarolar noroziligini yana oshirdi.

Bu paytda Liviya bo'ylab nafaqat turli terror guruhleri, balki qabilaviy ko'rinishdagi qurollangan guruhlar ham ko'payib, ma'lum bir yerlarda o'zlarining qoidalari o'rnatib olgan va markazga bo'yusmas edi. Qolaversa, mamlakatda eski tuzumni himoyachilari ya'ni Qaddafiy tarafdorlari va yangi tartib tarafdorlari orasida ziddiyat saqlanib qolgan edi. Bu guruhlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri qonli to'qnashuv 2014-yil 25 iyunda saylovlar natijalarini tan olmaslikdan kuchayib ketdi. Aslida ular orasida harbiy urushning boshlanishiga bir bahona kerak bo'lib turgan edi va bu saylov natijasi bilan boshlangan bo'ldi. Natijada, markazi Tripoli va Tobruk bo'lgan ikkita bir-birini tan olmaydigan hukumat paydo bo'ldi va oralaridagi muammoni harbiy yo'l bilan hal qilishga kirishdi.<sup>36</sup> Tadqiqotchi Johnathan Winerga ko'ra, Qaddafiydan keyin paydo bo'lgan ichki nizoning asl sababi turli guruhlar o'rtasida davlatning moliyaviy resurslari va neft konlari ustidagi nazorat qilish da'vosidan kelib chiqqan edi.<sup>37</sup> Shunday qilib, Liviya salkam 10 yildan buyon davom etayotgan fuqarolar urushiga kirdi.

Liviyaning nazorat qilish uchun kurash qabilaviy, shahar va mintaqaviy, siyosiy va diniy chegaralardan iborat bo'ldi. Har bir koalitsiya boshqaruv institutlarini yaratdi va harbiy boshliqlarni tayinladi va ularning har biri ichki parchalanish va bo'linishga duch keldi. Vaziyat shu darajaga keldiki, ma'lum bir shaharni qo'lga olgan harbiy guruhlar o'z mavqeyini saqlab qolish uchun bir-birlari bilan to'qnashish bilan birga, vaziyatga qarab tarafdorliklarini o'zgartirib turardi. Bu narsa qabilalar va diniy qurollangan guruhlar orasida ham yashadi. Ular asosan mamlakatdagi ikki katta kuch o'rtasida vaziyatga qarab taraflarini o'zgartirib turardi. Birinchisi, BMT tarafidan tashkil etilgan va tan olingan Umum Milliy Kongress kuchlari, ikkinchisi general Xalifa Xaftar kuchlari edi.

1948-yil tug'ilgan general Xaftar 1969-yilda qirol Idrisni ag'darishda Qaddafiy qo'llab-quvvatladi va uni yonida turdi. Qaddafiy davrida eng yuqori harbiy unvonga sazovor bo'ldi. SSSRda ikki marta (1977 va 1983-yillar) harbiy ta'lim olgan Xaftar 1986-yil AQShning Bab al-Azizdagi harbiy bazasiga zarbalar berdi. Ammo, 1987-yillarda Chaddagi harbiy harakatlarda katta harbiy xatoga yo'l qo'yishi oqibatida Liviya armiyasi og'ir yo'qotishlarga uchradi va Xaftarning o'zi ham asirga tushdi. Natijada, Qaddafiy undan voz kechvoradi, bundan Xaftar juda xafa bo'ladi va Qaddafiyga qarshi guruh tuzishini ma'lum qiladi. AQSh bilan o'zaro kelishib Amerikaga ketadi va Virjiniya shtatida 20 yil yashaydi. Bu orada CIA (Markaziy razvedka boshqarmasi) bilan hamkorlikda bir necha bor Qaddafiyga qarshi suiqaqdarda ishtirok etgan Xaftar, 2011-yil Liviyaga qaytib keladi va Bengazida o'z qarorgohini tuzadi.<sup>38</sup> Bengaziga bejis kelmagandi, yuqorida ham aytganimizdek, aynan shu yer Qaddafiy rejimiga qarshi markaz edi, ammo shuni ham aytish kerakki, Xaftar Qaddafiy o'ldirilgandan keyin Liviyaga qaytgandi.

Bengaziga kelishi bilan Xaftar Qaddafiy davrida kamsitilgan, ishdan ketgan yoki e'tiborsiz qolgan harbiylarni o'z atrofiga yig'di va harbiy forma kiygizdi. Birlashgan Arab Amirliklarining moliyaviy yordami bilan harbiylarga katta maosh bera boshladi. Bundan tashqari, mamlakat janubidagi qabilalarni bir-biriga xusumatlaridan foydalanib ba'zilarini o'z tarafiga oldi. Shuningdek, chegaralari aniq bo'lmagan va nazoratsiz bo'lgan Chad va Nigerdan o'tib keladigan yollanma askarlar, keyinchalik Xususiy harbiy kompaniya – Vagner askarlardan iborat katta qo'shinga ega bo'ldi. Bu ishlarini amalga oshirishda uni moliyaviy jihatdan BAA va Saudiya qo'llab-quvvatlar ekan, siyosiy jihatdan Misr, Fransiya va Rossiya qo'llab-quvvatladi.<sup>39</sup>

Liviya'dagi ichki nizolar va beqarorlik holatidan foydalanib islomiy jangari guruhlari ham tuzildi. Jumladan, shulardan biri Saudiya Arabistoni tomonidan qo'llab-quvvatlangan Medhali Salafiyarlari bo'lib, ular dastlab BMT tan olgan hukumat tarafida harakat qilgan bo'lsa, keyinchalik general Xaftarning 2014-yil Tripoliga hujumi paytida uning tomoniga o'tib ketdi. Vahhobiylar oqimiga amal qiluvchi Medhali Salafiyarlari bu paytda Sirta shahrini egallab olgan edi. Sirta shahri neft tashuvchi strategik port shahar bo'lganligi Medhali Salafiyarlarning Xaftar tomoniga o'tib ketishi generalning salohiyatini yana kuchaytirdi.<sup>40</sup> Xaftar orqali Liviya neftlaridan o'z ulushini olish Misrni ham quvontirmoqda.

Boshqa shunday jangari guruhlardan yana biri Al-Qoidaga yaqin ekanligi ilgari surilgan Misrata shahar jangarilaridan tashkil topgan "Liviya G'arbiy Mudofaasi" bo'lib, ular 2014-yil 3 iyulda Zintan qabilasiga qarshi Zintan harbiylari nazoratidagi Tripol aeroportini qo'lga kiritish uchun "Liviya oqshomi" nomi ostida hujum uyushtirdi. Shuningdek, ISHIDning Suriyada paydo bo'lishi bilan Liviyada ham faoliyat ko'rsatib Derna shahrini egallab oladi. Ammo, 2017-yilga kelib Milliy kelishiv hukumati Al-Sarach qo'shinlari Sirte, Misrata, Derna shaharlarini islomiy jangari guruhlardan (salafiyarlar, al-Qoida va ISHIDdan) tozalaganini ma'lum qildi.<sup>41</sup>

Yana bir islomiy jangari guruh mamlakat sharqida paydo bo'lgan va Xaftarga qarshi kurash olib borgan Ansor ash-Sharia guruhi ham bor edi. Ansor ash-Sharia 2012-yilda AQShning Bengazidagi konsulxonasiga hujum qilgan va bosh konsul hamda uch diplomatni o'limiga ham sabab bo'lgandi. Bengazi va Tobruk uchun kurashlarda katta yoqotishlarga uchragan Ansor ash-Sharia 2017-yil may oyida o'z faoliyatini tugatganini ma'lum qildi. Shunday qilib, 2017-yilga kelganda Liviyaning g'arbi ham sharqi ham turli diniy jangari guruhlardan (salafiyarlar, al-Qoida, ISHID, Ansor ash-Sharia va boshqalardan) tozalangan bo'ldi.<sup>42</sup>

Biroq, mamlakatda qo'shokimoyatchilik davom etmoqda va ikki bir-biriga raqib kuchlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash hali ham davom etmoqda. Birinchisi, 2014-yil saylovlardan keyin o'rta chiqqan kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish uchun Tripoli va Tobruk vakillarining Marokashda o'zaro kelishuvi orqali tuzilgan va BMT tomonidan tan olingan Milliy kelishuv hukumati va bosh vazir al Sarach, ikkinchisi general Xaftar. Al-Sarach hukumatini BMT tan olishi bilan birga, uni Turkiya, Qatar va qisman Germaniya qo'llab-quvvatlamoqda. AQSh, Britaniya va Italiya kabi davlatlar bu masalada betaraf holatida. General Xaftarni qo'llab-quvvatlovchi tashqi kuchlar (BAA, Saudiya Arabistoni, Misr, Fransiya va qisman Rossiya va Xitoy) ko'p bo'lishiga qaramasdan bugungacha (ya'ni 2022-yil holatigacha) Liviyada to'liq hokimiyatni qo'lga kiritdi.<sup>43</sup>

Albatta, Xaftarning kuchi hozir ham ancha yuqori. U 2019-yil mamlakatni 90 foizida nazoratni o'rnatgandi, biroq poytaxt Tripolini qo'lga kiritish harbiy amaliyotidan biroz oldin ya'ni 2019-yil noyabrda al-Sarach hukumatiga Turkiyaning harbiy yordami vaziyatni o'zgartirdi. Qatarning moliyaviy, Turkiyaning harbiy yordami bilan al-Sarach qo'shinlari nafaqat Xaftarning hujumini qaytardi, balki Tripolining janubida joylashgan Vutiya, Tarhuna, Bani Valid yashash manzillari, Tunisga chegaradosh dengizbo'yi hududlarni ham qaytadan qo'lga kiritdi.<sup>43</sup>

Turkiyaning al-Sarachni himoya qilishda geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarini yetibdi. Geosiyosiy jihatdan Yaqin Sharqda BAA, Saudiya va Misr uchligiga qarshi Qatar va Turkiya ittifoqi o'rin olgan bo'lsa, geoiqtisodiy jihatdan O'rta Yer dengizi bo'ylab o'tadigan energetik va tijoriy tarmoq ustidan nazoratni qo'lga kiritish (3-rasnga qarag) va bu yo'lga unga raqib Isroil-Yunoniston-Misr va Fransiya hamkorligini muvozanatlash, kuchayib ketishini oldini olishdir. Chunki, Isroil-Yunoniston-Misr va Fransiyaning O'rta Yer dengizi bo'yicha hamkorligi Turkiyaning iqtisodiy manfaatlariga jiddiy ziyon keltirishi mumkin.<sup>44</sup>

<sup>35</sup> Suleiman Al-Khalidi, Libyan islamists urge PM to resign over corruption, security. SEPTEMBER 10, 2013. <https://www.reuters.com/article/us-libya-islamists-idUSBRE9890TD20130910>

<sup>36</sup> Оганисян Л.Д. Становление новой ливийской государственности и политика евроатлантического сообщества (2011–2017). Вестн. Моск. ун-та. Сер. 25: Международные отношения и мировая политика. № 3, 2017. – С. 181.

<sup>37</sup> Winer J. M. Origin of the Libyan Conflict and Options for Its. Middle East Institute, 2019, pp. 4-7.

<sup>38</sup> Sana Chaudhry, "General Khalifa Haftar", Danu Strategic Forecasting Group, 2016, p. 1.

<sup>39</sup> Batafsilroq ma'lumotlar uchun manbalar: Barak Barfi, "Khalife Haftar: Rebuilding Libya from the Top Down", The Washington Institute for Near East Policy, 2014, vol: 2, pp. 2-3; Steiker V. How armed groups are plundering Libya's banks. The Middle East Eye. <https://www.middleeasteye.net/news/how-armed-groups-are-plundering-libyas-banks>, 11.04.2017; The Middle East Eye. US Accuses UAE of Funding Russian Mercenaries in Libya. The Middle East Eye. <https://www.middleeasteye.net/news/uae-libya-russia-us-accuses-funding-mercenaries>, 1.12.2020; Kamel M. Libya: UN report reveals Haftar's botched

mercenary plan. Africa Report. <https://www.theafricareport.com/29592/libya-how-marshall-haftars-mercenaries-have-fallen-into-the-ridicule/> Ma'lumot olingan sana: 24.09.2024.


<sup>40</sup> Warfalli A. Libyan commander Haftar's forces say they have taken Sirte. Reuters. <https://uk.reuters.com/article/uk-libya-security-idUKKBN1Z51L0>, 06.01.2020.

<sup>41</sup> Abdalsalam Mohamed Elhudairi and Hüseyin Işıksal, The Role of ISIS as a Religious Terrorist Group in the Instability of Libya in the Post-Gaddafi Era: The Case of Sirte. Religions, 13(516), 2022, pp. 1-21.

<sup>42</sup> Ansar al-Shariah (Libya) was a Salafi-Islamist militant organization operating in Libya. July 2018, <https://cisac.fsi.stanford.edu/mappingmilitants/profiles/ansar-al-shariah-libya>

<sup>43</sup> Murat Aslan, Libya's enduring ambiguity: to abstract a single correct from many faults, and an outcome from impasse. Turkish Journal of Political Science, vol. 4, issue 1, 2021, pp. 1-20.

<sup>44</sup> Sigvart Nordhov Fredriksen and Zenonas Tziarras, The Libya Conflict and its Implications for the Broader Region. Peace Research Institute Oslo (PRIO), Report 4/2020.



The Turkey-GNA deal according to Turkish media. Source: <https://www.yenisafak.com/>

### 3-rasm. Turkiya va Liviya Milliy kelishuv hukumati (GNA) o'rtasida O'rta Yer dengizi bo'yicha kelishuv

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, Liviya muammosi bugun liviyaliklarning istak-xohishi va umidlari hisobga oladigan emas, balki tashqi kuchlarning manfaatlarini ko'zda tutuvchi maydon bo'lib qoldi. Xalqaro ekspertlar Liviyaning doimiy parchalanishidan xavotir bildirishda davom etmoqda, chunki qurolli jangari guruhlar mamlakatni siyosiy va qabilaviy chegaralar bo'yicha bo'lishga urinishlari davom etmoqda. Bundan tashqari, birlamchi boshqaruv organi mavjud emasligi sababli migratsiya va odam savdosi muammoliligicha qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha agentligining hisob-kitoblariga ko'ra, davom etayotgan janglar natijasida Liviyada 217 mingdan ortiq odam o'z uyini tashlab ketgan va 1,3 millionga yaqin kishi gumanitar yordamga muhtoj.<sup>45</sup>

Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEK) a'zosi bo'lgan Liviya neft daromadlari Liviya umumiy eksportining 80 foizdan ortig'ini tashkil qiladi. Qurolli guruhlar neft konlari ustida jang qilishda va ishlab chiqarishni cheklashda davom etar ekan, mamlakat o'zini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladimi, degan xavotirlar ham ortmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdelsalam Mohamed Elhudairi and Hüseyin Işıksal, The Role of ISIS as a Religious Terrorist Group in the Instability of Libya in the Post-Gaddafi Era: The Case of Sirte. Religions, 13(516), 2022, pp. 1-21.
2. Ali Abdullatif Ahmida, "Libya, Social Origins of Dictatorship, and the Challenge for Democracy," The Journal of the Middle East and Africa 3, no. 1, 2012, pp. 70-81.
3. Alia Brahimi, "Libya's Revolution," The Journal of North African Studies 16, no. 4, 2011, pp. 605-624.
4. Ansar al-Shariah (Libya) was a Salafi-Islamist militant organization operating in Libya. July 2018, <https://cisac.fsi.stanford.edu/mappingmilitants/profiles/ansar-al-shariah-libya>
5. Anthony Bell and David Witter, Roots of Rebellion. Washington: Institute for the Study of War, 2011.
6. Cherif Bassiouni, Libya: From Repression to Revolution: A Record of Armed Conflict and International Law Violations, 2011-2013. Martinus Nijhoff Publishers, 2013.
7. Dirk Vandewalle, A History of Modern Libya. Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
8. Instability in Libya, <https://www.cfr.org/global-conflict-tracker/conflict/civil-war-libya>, Updated August 03, 2022.
9. John Wright, A History of Libya. London: Hurst Publishers, 2010.
10. Mansour Omar El-Kikhia, Libya's Qaddafi: The Politics of Contradiction. Gainesville: University Press of Florida, 1997.
11. Mohamed Ben Lamma, "The Tribal Structure in Libya: Factor for Fragmentation or Cohesion," Fondation Pour La Recherche Stratégique, 2017.

#### Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak, Liviya qabilalar o'rtasidagi mojarolar, hokimiyat uchun kurash, diniy guruhlariga ayrilishi, hukumatning korrupsiyalashganligi va nepotizmning yoyilishi, aholining siyosiy savodxonligi yetarli emasligi, mamlakatning tarixan uchga bo'linishi (Tripolitaniya, Kirenaika, Fezzan) va bir butun davlat bo'la olmasligi 2011-yilgi "arab bahori" natijasida jiddiy ichki nizo va fuqarolar urushi girdobiga tushdi. Katta miqdorda neft zaxiralari egaligi, O'rta Yer dengizi bo'yida joylashganligi geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlaridagi tashqi kuchlarning mojaroga aralashishiga va muammoning yanada murakkablashishiga olib keldi. Yaman va Suriya misolida bo'lganidek, Liviya misolida ham ko'rishimiz mumkin bo'lgan xususiyat ichki nizolar tashqi kuchlarning vositasi va manfaatlari to'qnashgan hamda proxy urushlarini olib boradigan maydonga aylanishi vaziyatini yanada izdan chiqarmoqda. Bundan esa oddiy xalq azob chekmoqda. Liviya misolida minglab odam o'ldi, milliyonlab odam gumanitar inqirozga uchradi.

12. Murat Aslan, Libya's enduring ambiguity: to abstract a single correct from many faults, and an outcome from impasse. Turkish Journal of Political Science, vol. 4, issue 1, 2021, pp. 1-20.
13. Nadine Schnelzer, Libya in the Arab Spring: The Constitutional Discourse Since the Fall of Gaddafi. Erlangen: Springer, 2016.
14. Peter Cole, "Bani Walid: Loyalism in a Time of Revolution," in Peter Cole, and Brian McQuinn (eds), The Libyan Revolution and its Aftermath. 2015, pp. 285-302.
15. Ronald Bruce St. John, Libya: From Colony to Revolution. Oxford: One world, 2012.
16. Sana Chaudhry, "General Khalifa Haftar", Danu Strategic Forecasting Group, 2016, p. 1.
17. Sigvart Nordhov Fredriksen and Zenonas Tziarras, The Libya Conflict and its Implications for the Broader Region. Peace Research Institute Oslo (PRIO), Report 4/2020.
18. Suleiman Al-Khalidi, Libyan islamists urge PM to resign over corruption, security. SEPTEMBER 10, 2013. <https://www.reuters.com/article/us-libya-islamists-idUSBRE9890TD20130910>
19. Thomas Hüskén, "Tribes, Revolution, and Political Culture in the Cyrenaica Region of Libya," in Local Politics and Contemporary Transformations in the Arab World, ed. Malika Bouziane et al. Hampshire: Palgrave Macmillan, 2013.
20. Thomas M. Hill, Four Things to Know About Libya's Conflict and Foreign Interference, July 8, 2020 <https://www.usip.org/publications/2020/07/four-things-know-about-libyas-conflict-and-foreign-interference>

<sup>45</sup> Thomas M. Hill, Four Things to Know About Libya's Conflict and Foreign Interference, July 8, 2020 <https://www.usip.org/publications/2020/07/four-things-know-about-libyas-conflict-and-foreign-interference>

21. Warfalli A. Libyan commander Haftar's forces say they have taken Sirte. Reuters. <https://uk.reuters.com/article/uk-libya-security-idUKKBN1Z51L0>, 06.01.2020.

22. Winer J. M. Origin of the Libyan Conflict and Options for Its. Middle East Institute, 2019, pp. 4-7.

23. Оганисян Л.Д. Становление новой ливийской государственности и политика евроатлантического сообщества (2011–2017). Вестн. Моск. ун-та. Сер. 25: Международные отношения и мировая политика. № 3, 2017. – С. 181.